

**IFODALI O'QISH O'QUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI
RIVOJLANTIRISHNING MUHIM VOSITASI SIFATIDA****Qosimova Aziza Farhod qizi****Nizomiy nomidagi TDPU doktoranti****kosimovaaziza173@gmail.com****+998975380998****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14793536>**

Annotatsiya: ushbu maqolada o'qish va uning turlari va boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, shu bilan birga ifodali o'qish ko'nikmasini takomillashtirish haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: o'qish, o'qish turlari, ovozi o'qish, ichda o'qish, shivirlab o'qish, ifodali o'qish, boshlang'ich sinf, ko'nikma, metodik tayyorgarlik, metodologik asos.

Аннотация: в данной статье представлены взгляды на чтение и его виды, формирование навыков чтения у учащихся младших классов, а также совершенствование навыков выразительного чтения.

Ключевые слова: чтение, виды чтения, голосовое чтение, внутреннее чтение, чтение шепотом, выразительное чтение, начальная школа, навык, методическая подготовка, методическая основа.

Abstract: in this article, the views on reading and its types and the formation of reading skills in elementary school students, as well as improving expressive reading skills, are presented.

Key words: reading, types of reading, vocal reading, internal reading, whispering reading, expressive reading, elementary school, skill, methodological preparation, methodological basis.

Respublika ta'lim tizimini sifatini yanada oshirishning eng muhim shartlaridan biri sifatida maktablarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, uzluksiz ta'limning yagona interaktiv tizimini shakllantirish bilan bog'liq yuzaga klgan muammolarni hal qilish maqsadida bir qator qaror va farmonlar imzolandi. Xarakteristik strategiyasining 4.4-bandida bugungi globallashuv sharoitida maktab ta'limi, xususan, boshlang'ich ta'lim tizimida foydalanilayotgan o'quv dasturlari va o'quv qo'llanma, darsliklarni yanada yaxshilash borasida ham ma'lum ko'rsatmalar ko'rsatib o'tilgan.

Pedagogikadan atamalar lug'atida "kompetensiya — u yoki bu soha bo'yicha bilimdonlik" sifatida tarif berilgan bo'lsa, O'zbekiston milliy ensiklopediyasida "kompetensiya — 1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba" sifatida tariflanadi.

Kompetensiya atamasi lug'aviy jihatdan bevosita chuqur bilimga asoslangan qobiliyat, layoqatlilik darajasini anglatadi. Mazmunan esa faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni bildiradi.

Umuman olganda, "kompetensiya" va "kompetentlilik" tushunchalariga berilgan ta'riflarda kompetensiya muayyan faoliyatda talab qilinadigan xulq-atvor, o'zini tutish, kompetentlilik esa ushbu talabga moslik darajasi, ya'ni kompetensiyani namoyish qilishning pirovard natijasi deb talqin qilinadi.

Kompetentlilik tushunchasi (lotinchadan *competentia*, *competere* so'zidan olingan bo'lib — "birgalikda erishaman, qozonaman, mos kelaman, to'g'ri kelaman" degan ma'noni bildiradi) lug'atlarda esa "nimadir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega bo'lish", "xabardor

bo'lmoq, huquqli bo'lmoq" degan ma'noni bildiradi. Amalda barcha lug'at tuzuvchilar "kompetentlik" va "kompetensiya" kategoriyalarini chegaralab qo'yadi. Kompetentlik ta'rifi o'xshash va bir-birini o'rnini egallaydi (to'ldiradi), shu bilan bir vaqtda kompetensiya so'zi uchun yagona izohlash yo'q, bu tushuncha "vakolatlar yig'indisi (huquq va majburiyatlar) qandaydir organ yoki lavozimli shaxsning qonun, nizomlar bilan belgilab qo'yilgan ushbu organ yoki boshqa holatlar", "nimanidir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega bo'lish (egalik qilish)", "kimdir yaxshi xabardor bo'lgan savollar to'plami (sohasi)" tushuniladi."

O'zbek olimi N.M.Muslimovning fikricha inglizcha "competence" tushunchasining lug'aviy ma'nosi "qobiliyat" demakdir, biroq kompetensiya atamasi bilim, ko'nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi. Boshqa bir o'zbek olimi I.Alievning fikricha, kompetentlik deganda ma'lum bir egallangan kompetensiya, ya'ni ma'lum bir sifatlarning to'liq shakllangan majmui tushuniladi. Mazkur tushuncha lug'atlarda "nimadir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega bo'lish," "xabardor bo'lmoq, huquqli bo'lmoq" deya tariflanadi. "Kompetentlik ta'rifi o'xshash va bir-birini o'rnini egallaydi (to'ldiradi), shu bilan bir vaqtda kompetensiya so'zi uchun yagona izohlash yo'q, bu tushuncha "vakolatlar yig'indisi (huquq va majburiyatlar) qandaydir organ yoki lavozimli shaxsning qonun, nizomlar bilan belgilab qo'yilgan ushbu organ yoki boshqa holatlar", "nimanidir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega bo'lish (egalik qilish)", «kimdir yaxshi xabardor bo'lgan savollar to'plami (sohasi)" tushuniladi. Demak, kompetentlikning ma'nolari turli sohalarda turlicha ma'no kasb etadi. Rus olimi N.V.Tarasova bo'lsa, "kompetensiya" tushunchasini "muammoni hal etish uchun bilim va vaziyat, bilim va harakat o'rtasida aloqadorlikni ta'minlash imkonini beradigan bilim, qadriyatlar, layoqatlarga asoslangan umumiy qobiliyat" sifatida talqin etadi. Muallifning fikridan kelib chiqqan holda, kompetensiya – insonning mavjud bilim va hayotiy tajribalarga tayangan holda ma'lum bir muammoni hal etishga doir qobiliyati, degan xulosaga kelish mumkin.

Talaba va o'quvchilarning kommunikativ kompetentligiga nimalar kiritilishi kerakligiga ko'plab yondashuvlar mavjud. D.Xayms bu yerga diskursiv (aytilayotgan gapning ma'nosini qurish qoidalari) va strategik (suhbatdosh bilan aloqani davom ettirish qoidalari), grammatik (til qoidalari) va ijtimoiy-lingvistik (dialekt nutq qoidalari) kompetensiyalarini kiritishni zarur deb hisobladi. Tadqiqotchi A.A.Bodalyovning izohlashicha, "muloqotning kommunikativ tomoni insonlar orasida ma'lumotlar bilan o'rtoqlashishdan, muloqotning interfaol tomoni individlar orasida o'zaro hamkorlikni tashkillashdan, ya'ni nafaqat bilim va g'oyalar, shu bilan birga xatti-harakatlar bilan axborot almashinishdan..., muloqotning perseptiv tomoni bir-birlarini qabul qilish jarayonini muloqotdagi sherik deb qabul qilishi va shuning zaminida hamjihatlik munosabatidan iborat. Shaxs muloqot qilayotgan sheriklarining o'z fikri, dunyoqarashi, g'oyalarini to'la-to'kis ifodalashga psixologik sharoitlar yaratish, vositalarning boy, turli-tuman palitrasini tashkillash, adekvatlikning barcha perseptiv, kommunikativ, interfaol qirralarini egallashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak". Rus olimi O.Kazarseva fikricha, kommunikativ kompetentlik "tug'ma qobiliyat bo'lmay, inson tomonidan ijtimoiy-kommunikativ tajribani egallash jarayonida shakllanuvchi qobiliyatdir. Kommunikativ-ijtimoiy tajriba, avvalo, munosabatlarni o'zgartirish mexanizmini o'z ichiga olib, nutqni stilistik jihatdan turli variantlarda qo'llashda namoyon bo'ladi. Bunday o'zgarishning asosida muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi rolli muloqotlarning o'zgarishi yotadi". Demak, ushbu kompetentlik, murakkab kommunikativ ko'nikma va faoliyat turi bo'lib, yangi ijtimoiy ko'nikmalar, muloqot normalari va cheklovlar, bilim, urf-odatlar, etiket, odob-axloq, ta'limga xos orientatsiyalar hisoblanadi.

D.Xayms til haqidagi bilimlar (grammatika)ni o'zlashtirish jarayonida undan to'g'ri foydalanishni ham, ya'ni qachon, qaerda, kimga, qay tarzda va nima haqida gapirish maqbulligini o'rganish orqali kommunikativ kompetentligini takomillashtirib boradi, deya kommunikativ kompetensiya atamasining muallifiga aylandi.

Bugunga kelib kompetensiya insonning turli sohalarda faoliyat olib borishi uchun zarur bo'ladigan bilim, malaka, ko'nikma va shaxsiy fazilatlar yig'indisini ifodalaydi. Lingvistik kompetensiya til materiali (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglash, gapirish, o'qish va yozuv) bo'yicha ko'nikmalar egallashni nazarda tutadi. Sotsiolingvistik kompetensiya so'zlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash imkonini yaratadi. Sotsiolingvistik kompetensiya ijtimoiy-madaniy kompetensiyani o'z ichiga olib, autentik nutqning milliy xususiyatlarini: o'zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlarini, qadriyatlarini, marosimlari va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarni bilish hamda tili o'rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini ko'zda tutadi.

Sotsiolingvistik kompetensiya – axborot sohibi (kognizant)ni shakllantirishning asosiy ko'rsatkichi bo'lib, u shaxsning o'rganilayotgan tildan kommunikativ faoliyat me'yorlari, o'zga lingvoetnomadaniy qadriyatlar va o'zga til dunyosining milliy manzarasiga uyg'un tarzda foydalana olish kompetentligini nazarda tutadi. Nutq bir vaqtning o'zida qandaydir ma'lumotning manbai vazifasini bajarishi, shu bilan bir qatorda, o'z suhbatdoshiga ta'sir ko'rsatish usuli sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Biroq o'zaro ta'sir ko'rsatish jarayonini to'liq tavsiflash uchun faqat kommunikativ akt strukturasini bilish kamlik qiladi. Muomalada bo'lgan har ikki tomonning motivlari, ularning maqsad va vazifalarini ham sinchiklab tahlil qilish zarur.

Kommunikativ nutq – bu talabalarning nutq yordamida bir-birlari bilan fikr almashuvidir. Kommunikativ nutq madaniyati – talabalarning bir-birlari bilan fikr almashishi jarayonida axloq qoidalariga amal qilgan holda nutqdan moxirona foydalanishi. Talabalarda lug'at boyligi qancha ko'p bo'lsa, u shuncha o'zini erkin tutadi. Nutqning aniqligi – kommunikativ nutqning muhim belgisi hisoblanadi. Nutq tarkibidagi har bir so'z o'zining lug'aviy ma'nosiga to'liq mos kelishi shart. Aytilishi kerak bo'lgan fikr o'z ifodasini topmay qoladi. Voqelik hodisalari so'zlovchining nutqida aniqlikni aks ettirib turishi kerak.

Kommunikativ nutq jarayonlarida so'zlar aniq bo'lishi talab qilinadi. Nutqdan doimiy ravishda to'g'ri foydalanish kerak. Nutq muallif tomonidan aytilishi kerak bo'lgan fikrni to'liq qamrab olib, uning mavzusi va asosiy g'oyasini ochib berishi shart. Nutqning keyingi muhim kommunikativ sifati uning tozaligi, ya'ni adabiy tilda begona elementlarning yo'qligi. Nutqda parazit so'zlarning mavjudligi leksik zaxiraning yetishmasligidan, ehtimol nutq mavzusining haqiqatiga nisbatan ishonchning yo'qligidan yoki u haqida ma'lumotning yetishmasligidan dalolat berib, aytilgan so'z uchun javobgarlikni qisman olib tashlaydi. Demak, kommunikativ kompetentlik bugungi globallashtirish sharoitida va axborotlashgan jamiyatda muhim xususiyatlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun kommunikativ kompetentlikni o'stirish yo'llarini tadqiq etish, pedagogik jarayonda ta'lim oluvchining muloqotchanlik va faol aloqa bog'lovchilik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va amaliyotdagi takomillashtirish vazifalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilganda, talabalarda muomala, muloqot malakalarining rivojlanishi ularda kommunikativ kompetentlikning taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi omil ekanligi aniqlandi; kommunikativ kompetentlikning talabalarda shakllanishi boshqalar bilan o'zaro munosabatlarni

to'g'ri yo'lga qo'yishiga hamda muloqotchanlik malakalarining rivojlanishiga olib keladi; talaba shaxsida kommunikativ kompetentlikning shakllanishi ular da ijtimoiy ko'nikmalarining rivojlanishi bilan belgilanadi.

References:

1. Graham Stanley. Language Learning with Technology (Cambridge Handbooks for Language Teachers). – Cambridge University Press: 2013. P-275. Aisha Walker. Technology Enhanced Language Learning: Connecting Theory and Practice (Oxford Handbooks for Language Teachers). – Cambridge University Press: 2013. P-214.
2. Aisha Walker. Technology Enhanced Language Learning: Connecting Theory and Practice
3. (Oxford Handbooks for Language Teachers). – Cambridge University Press: 2013. Pérez Tornero, J.M. and Varis, T. (2010). Media Literacy and new Humanism. Moscow: UNESCO Institute for Information Technologies in Education, 136 p.
4. Kubey, R. (1998). Obstacles to the Development of Media Education in the United States. Journal of Communication (Winter), pp.58-69.
5. CLEMI (1996). L'Actualite' et les medias ` a l'ecole primaire, au college et au licee. Paris: CLEMI, 120 p p.12
6. Children and social competence: Arenas of action / Ed. by Hutchby I., Moran-Ellis J.; L. Wach. : Falmer press, 1998.
7. UNESCO. Recommendations Addressed to the United Nations Educational Scientific and Cultural Organization UNESCO. In: Education for the Media and the Digital Age. Vienna: UNESCO, 1999, p.273-274.
8. UnlandM., Kleiner B.H. New developments in organizing around core competences/ M. Unland, B.H. Kleiner. Work study. London: 1996. Vol.45, Iss. 2.
9. Hofstede G. Cultures and organizations. Software of the mind. – L.McGraw – Hill Book Company, 1991.